

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

Son 9 Jild 4

2024

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ 9 (4) - 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2024

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

Саидов Сарвар Атабулло ўғли – катта илмий ходим, Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот маркази, илмий тадқиқотлар бўлими.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Саидалоҳонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, “Tashkent International University of Education” халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулов Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилевич – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Аҳмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат ҳавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Эргашев Икром Абдурасулович – юридик фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Ҳашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шоҳида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Караматдиновна – психология фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабобовна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Xaynazarov Baxromjon Baxtiyorovich</i> RIVOJLANGAN O'RTA ASRLARDA PIRENEY YARIM OROLIDAGI KORTESLARNING JAMIYAT HAYOTIDAGI O'RNI	10-14
<i>Azizbek Xolliyev</i> XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA ROSSIYA TOG'-KON SANOATIDA BRITANIYA SARMOYASINING TUTGAN O'RNI	15-20
<i>Mahkamov Abdiqayum Mahkamovich</i> SUDYALAR OLIY KENGASHINING SUDYALAR KORPUSINI SHAKLLANTIRISHDA TUTGAN O'RNI (TARIXIY TAHLIL)	21-25
<i>Eshimov Shaxridin Xujayorovich</i> SUD – HUQUQ TIZIMIDAGI TARG'IBOTCHILIK FAOLIYATI VA MA'NAVIY – MA'RIFIY ISHLAR (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)	26-31
<i>Намазова Умида Нормурадовна</i> ИЛК ЎРТА АСРЛАР СУҒДДА НИКОҲ: ШАКЛЛАНИШИ, ТАРИХИЙ ИЛДИЗЛАРИ ВА ХУСУСИЯТЛАРИ	32-41
<i>Самадов Искандар Исмамович</i> ХОРАЗМ ХАЛҚ СОВЕТ РЕСПУБЛИКАСИ (ХХСР)ДА ЕР-СУВ МАСАЛАСИ	42-48
<i>Rustamova Madina Musoqulovna</i> SAMARQAND VILOYATI XOTIN-QIZLARNING ILM-FAN, TA'LIM VA INNOVATSIYALARGA QO'SHGAN HISSASI	49-56
<i>Jiyanbekova Sharofat Abdikaharovna</i> SOVET DAVRIDA KITOB TAQIQLARIGA NISBATAN O'ZIGA XOS SENZURA AMALIYOTLARI...	57-64
<i>Tursunov Javlonbek Akrom o'g'li</i> MUQADDAS QADAMJOLAR. SAMARQAND SHAHRINING TARIXIY TOPONOMIYASINING MUHIM TARKIBIY QISMI	65-68

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Tolipova Baxtigul</i> MAMLAKAT OZIQ-OVQAT SANOATIGA YO'NALTIRILGAN INVESTISIYALARNING EKONOMETRIK TAHLILI	69-77
<i>Mamanazarov Abdusamat Abdusaitovich</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA PUL-KREDIT SIYOSATI KO'RSATKICHLARI TAHLILI	78-83
<i>Амбарцумян Анастас Алексеевич, Хасанова Руфина Раисовна</i> ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ГЕНДЕРНОГО РАВЕНСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ	84-96
<i>Meliyeva Nargiza Eshboyevna</i> INSON RESURSLARINI BOSHQARISHDA RIVOJLANGAN DAVLATLARING TAJRIBASI	97-104

<i>Исраилов Рустам Ибрагимович</i> КИЧИК БИЗНЕС ВА ХУСУСИЙ ТАДБИРКОРЛИКНИ РИВОЖЛАНТИРИШ МАСАЛАЛАРИ	105-109
<i>Jumaniyazov Inomjon To'raevich</i> APPLICATION OF ESG PRINCIPLES IN THE ACTIVITIES OF SOVEREIGN INVESTMENT FUNDS	110-120
<i>Amonov Navro'zxon Saloxiddin o'g'li</i> MINTAQAVIY MEHNAT BOZORIDAGI ISHCHI KUCHIGA TALAB VA TAKLIFNI ISTIQBOLLASHTIRISH YO'LLARI	121-129
<i>Mirxamidova Zahinabonu Mirxamid qizi</i> ROBOTLASHTIRISH DAVRIDA MEHNAT BOZORINING O'ZGARISHI: TO'RTINCHI SANOAT INQILOBI MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI.....	130-138
<i>Kalbayev Muratbay Aytbaevich</i> AYLANMA MABLAG'LARNI TAHLIL QILISH METODOLOGIYASI	139-144
09.00.00 – FALSAFA FANLARI	
<i>Ernazarova Yorqinoy Ollaberganovna</i> RIVOJLANGAN DAVLATLARDA KADRLAR XIZMATINI TASHKIL ETISH: ODOB-AXLOQ QOIDALARI VA KASBIY MADANIYAT TALABLARIGA RIOYA ETILISHINI TA'MINLASH MEXANIZMLARI	145-155
<i>Ahrorova Shahlo O'rinboyevna</i> GLOBALASHUV SHAROITIDA MILLIY QADRIYATLARNING TAKOMILLASHUVI JARAYONI	156-161
<i>Рахманов Баҳодир</i> АЛИШЕР НАВОЙИ КОМИЛ ИНСОН КОНСЕПСИЯСИДА СИНЕРГЕТИК ҲОЯЛАР ИНЪИКОСИ	162-170
<i>Нуралиева Насиба Ахмадқуловна</i> ЖАДИД МУТАФАККИРЛАРИ ИЖОДИДА ТАРБИЯГА ОИД ҚАРАШЛАРНИНГ ФАЛСАФИЙ ТАҲЛИЛИ	171-176
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Fayzulloev Otabek Muhammadovich</i> KATTALAR FOLKLORINING TARKIBIY QISMI – BOLALAR FOLKLORI HAQIDA.....	177-184
<i>Тоқимбетова Гулбахор Абатбаевна</i> ЎЗБЕК-ҚОРАҚАЛПОҚ АДАБИЁТШУНОСЛИГИДА ИРФОНИЙ ОБРАЗЛАР	185-190
<i>Yusupova Sadokat Alijon qizi</i> “BOBURNOMA”NING YAPONIYADA O'RGANILISHI	191-197
<i>Xudoyberdiyeva Gulmira Allaberdi qizi</i> JAHON TILSHUNOSLIGIDA POLISEMIYA HODISASIGA LINGVISTIK YONDASHUV (RUS VA INGLIZ TILSHUNOSLIGI MISOLIDA)	198-201
<i>Tangriyev Valisher Azamovich</i> SOMATIK IFODALAR ORQALI BERILGAN PARALINGVISTIK VOSITALARNING QIYOSIY TADQIQI: “ANOR” HIKOYASI MISOLIDA	202-206

Abulova Zilola Azimovna

INGLIZ AFORIZMLARINING TARKIBIDA BIR JUMLA HAMDA QO'SHMA GAPLAR BILAN
IFODALANGAN AFORIZMLAR XUSUSIYATLARI 207-201

Qurbonova Dilnoza Olimovna

TYPES AND FUNCTIONS OF ADVERTISEMENT IN ENGLISH AND UZBEK..... 210-216

Quljanova To'lg'anoy Shodiyor qizi

ASQAR MAHKAM IJODIDA BUVI OBRAZINING O'ZIGA XOSLIGI 217-221

Babajanova Aziza Rustamovna

ABDULLA ORIPOV SHE'RIYATIDA BAHOR MAVZUSINING BADIY TALQINI 222-227

Khursanova Laylo Bakhtiyarovna

REPRESENTATION OF THE CONCEPT OF "PATIENCE" IN SPECIAL ENGLISH
DICTIONARIES 228-232

Diyorova Mohlaroyim Xamza qizi

O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA SIFAT SO'Z TURKUMI TADQIQI 233-238

Samadova Visola Baxtiyor qizi

INGLIZ, O'ZBEK VA RUS TILLARIDA ANTONIM KOMPONENTLI FE'L FRAZEOLGIK
BIRLIKRLARNING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI 239-242

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

Tўлаганова Гулчехра Захитовна, Гофурова Дилафруз Мурод қизи

AЁЛЛАР ТОМОНИДАН СОДИР ЭТИЛГАН ЖИНОЯТЛАРНИ ТЕРГОВ ҚИЛИШНИ
РЕЖАЛАШТИРИШ, ЮЗАГА КЕЛАДИГАН ТЕРГОВ ВАЗИЯТЛАРИ ВА ВЕРСИЯЛАРНИ
ИЛГАРИ СУРИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ 243-252

Tosheva Maftuna Anvar qizi

INSON A'ZOLARI VA TO'QIMALARINING TRANSPLANTATSIYASI BILAN
BOG'LIQ JINOYATLAR 253-262

Ikramov Sherzod Raximdjaniyovich

VOYAGA YETMAGAN SHAXSLARNI MODDIY TA'MINLASHDAN BO'YIN TOVLASHNING O'ZIGA
XOS XUSUSIYATLARI 263-266

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

Tohirova Mohigul Umir qizi

KO'RISHDA NUQSONI BOR SHAXSLARNING IJTIMOY UMIDSIZLIK DARAJASINI PSIXOLOGIK
O'RGANISH. (L.I.VASSERMANNING "IJTIMOY FRUSTRATSIYA (UMIDSIZLIK) DARAJASINI
DIAGNOSTIKA QILISH METODOLOGIYASI" ASOSIDA) 267-274

Nasriddinov Dadaxon Komiljonovich

OLY HARBIY TA'LIMDA FIZIKA O'QITISH SAMARADORLIGINI MOBIL ILOVALAR VA
ROBOTOTEXNIKA ELEMENTLARI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH YUZASIDAN OLIB
BORILGAN PEDAGOGIK TAJRIBASINOV ISHLARI VA ULARNING NATIJALARI 275-281

Xojaniyazova Inkar Jumanazarovna

BOSHLANG'ICH TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA DIDAKTIK MATERIALLARDAN FOYDALANISH
IMKONIYATLARINI KENGAYTIRISH MASALALARI 282-292

Ashurova Marhabo Sayfulloyevna

BUXORO JADIDLARI VA YANGI USUL MAKTABLARIDA O'QITISH IMKONIYATLARI 293-301

<i>Алимова Нигора Исраиловна</i> ОСОБЕННОСТИ СИСТЕМНОГО ПОДХОДА В ОБРАЗОВАНИИ И ВОСПИТАНИИ ДЕТЕЙ, НАХОДЯЩИХСЯ НА ДЛИТЕЛЬНОМ ЛЕЧЕНИИ	302-308
<i>Matajonova Gulnoza Karimovna</i> IJTIMOIY FANLARNI TEXNIKA YO'NALISHI TALABALARIGA O'QITISHNING DOLZARB MUAMMOLARI	309-313
<i>Axmadjanova Madina Maxmudjon qizi</i> GRAMMATIK MINIMUM VA UNI O'QITISH METODLARI	314-319
<i>Norboyev Zafar Abdumuminovich</i> OLIIY TA'LIM MUASSASALARIDA CEFR ME'ZONLARI ASOSIDA YANGI AVLOD DARSLIKLARINI YARATISH TEXNOLOGIYALARI	320-323
<i>Axmedova Zuxraxon Tulyanbayevna</i> QO'L TO'PI O'YININING JISMONIY JIHATDAN O'QUVCHILARNING O'QISHNI TUSHUNISHLARIGA TA'SIRI	324-329
<i>Юсупова Заррина Курбоновна</i> УНИКАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ ДИСТАНЦИОННОГО ОБУЧЕНИЯ И ВЫЗОВЫ В РАЗВИТИИ ЦИФРОВОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ	330-334
<i>Ravshanova Xafiza Komilovna</i> MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI TARBIYACHILARIDA TANQIDIY FIKRLASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY ASOSLARI	335-340
<i>Nurbayeva Xolniso Uralovna</i> GENDER STREOTIPLAR GENDER MADANIYATNING TARKIBIY QISMI SIFATIDA	341-345
<i>Samatova Shohsanam Xolmuhammad qizi</i> BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING TIZIMLI FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISH MUHIM PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA	346-351
<i>Mustayeva Guliston Bo'riboyevna</i> TIBBIY TA'LIMDA AKS ETTIRISH AMALIYOTINING AHAMIYATI: UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANISHGA KO'MAKLASHISH	348-356
<i>Ahmedbekova Maxpuzaxon</i> TASVIRIY SAN'AT DARSLARIDA O'QUVCHILAR BILIMINI OSHIRISHNING PEDAGOGIK VA INNOVATSION JIHLTLARI	357-362
<i>Utkirov Abbos Meyliyevich</i> ARTIFICIAL INTELLIGENCE IMPACT ON HIGHER EDUCATION QUALITY AND EFFICIENCY	363-388
<i>Xodiyeva Gulhayo Hasan qizi</i> BOSHLANGICH SINIF O'QUVCHILARIDA MATEMATIKA FANI ORQALI TANQIDIY-TAHLILIIY HAMDA MA'LUMOTLARNI TAHLIL QILISH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH USULLARI.....	389-393
<i>Maxliyo Qalandarova</i> UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA MATEMATIKA DARSLARIDA O'QUVCILARNING MOLIIYAVIIY SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISH SHAKLLARI VA USULLARI.....	394-399

08.00.00-IQTISODIYOT FANLARI – ECONOMICAL SCIENCES**Received:** 30 August 2024**Accepted:** 5 September 2024**Published:** 15 September 2024*Article / Original Paper***ECONOMETRIC ANALYSIS OF INVESTMENTS TO THE FOOD INDUSTRY OF THE COUNTRY****Bakhtigul Tolipova**

Nordic International University, head of HR and staff development department, PhD

E-mail: b.tolipova@nordicuniversity.org

Abstract. This study provides an econometric analysis of investment in the country's food processing industry. The objective of the study is to assess the impact of different investment strategies on the growth, performance, and overall economic contribution of the industry. Using advanced econometric techniques, the analysis examines how factors such as government policies, market conditions, and technological advances affect investment outcomes. The study uses statistical models to quantify the relationship between investment levels and key performance indicators such as output, employment, and profitability.

Key words: Econometric analysis, Investments in the food industry, Economic effect, Investment strategies, production productivity, profitability, market conditions, industrial growth.

MAMLAKAT OZIQ-OVQAT SANOATIGA YO'NALTIRILGAN INVESTISIYALARNING EKONOMETRIK TAHLILI**Tolipova Baxtigul**

Xalqaro Nordik Universiteti HR departamenti boshlig'i (PhD)

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot mamlakatda oziq-ovqat sanoatiga investitsiyalarni ekonometrik tahlil qilishga qaratilgan. U turli investitsiya strategiyalarining sanoatning o'sishi, samaradorligi va umumiy iqtisodiy hissasiga ta'sirini baholashga qaratilgan. Ilg'or ekonometrik usullardan foydalangan holda tahlil hukumat siyosati, bozor sharoitlari va texnologik taraqqiyot kabi omillar investitsiya natijalariga qanday ta'sir qilishini o'rganadi. Tadqiqotda investitsiyalar darajasi va ishlab chiqarish hajmi, bandlik darajasi va rentabellik kabi asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari o'rtasidagi munosabatlarni miqdoriy aniqlash uchun statistik modellardan foydalaniladi.

Kalit so'zlar: Ekonometrik tahlil, Oziq-ovqat sanoati sarmoyalari, Iqtisodiy ta'sir, Investitsiya strategiyalari, ishlab chiqarish mahsuldorligi, rentabellik, bozor sharoitlari, sanoatning o'sishi.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I9Y2024N09>

Kirish. Har qanday mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojlanishida investitsiyalarning ahamiyati beqiyos hisoblanadi. Bugungi kun iqtisodiyotning globallashuv jarayonlari uchun o'ziga xos davr hisoblanadi. Jahon bozorida o'z o'rniga ega bo'lishi, xalqaro iqtisodiy munosabatlarni ijobiy faoliyat yuritish hamda ichki va tashqi bozorlarda milliy tovarlar raqobatdoshligini oshirishda iqtisodiyotga investitsiyalarning ahamiyati oshib bormoqda. Mamlakatga investitsiyalarning kirib kelishi makroiqtisodiy o'sishning asosiy omillaridan biri bo'lib hisoblanib turgan bir vaqtda uning mikroiktisodiy ko'lamdagi o'rni ham

beqiyosdir. Real sektorning ishlab chiqarish jarayoniga investitsiyalarning jalb etilishi bu sohaning milliy va jahon bozorlarida faoliyat yuritishining asosiy omili bo'lib hisoblanadi. Tashqi iqtisodiy aloqalar rivojlanib borayotgan erkin iqtisodiyot sharoitida korxonalar investitsiyalar yordamida raqobatbardosh tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarishga erishadi.

2050-yilga kelib yer yuzidagi aholi soni 9 milliardga yetishi va so'nggi iqtisodiy o'sish tendensiyalariga tayanib kambag'al aholining daromadlari ortib borishi prognoz qilinmoqda [1]. Bu esa o'z navbatida oziq-ovqat sanoati mahsulotlari turlarini kengaytirish va sifatini oshirish, ishlab chiqarishga yangi texnologiyalar joriy qilishni taqozo etadi. Mamlakatimiz aholisini uzluksiz ravishda sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash masalasi oziq-ovqat sanoati tarmoqlarining rivojlanishiga alohida e'tibor qaratishni talab etadi. Mamlakatimiz iqtisodiyoti muhim mavqeni egallaydigan oziq-ovqat sanoatiga ega. Bu sanoat asosan mahalliy xom ashyoni qayta ishlashga asoslangan. Oziq-ovqat korxonalari sanoati bir-biriga bog'langan o'nlab turdagi tarmoqlarni o'z ichiga olgan.

Oziq-ovqat sanoati – aholini ijtimoiy jihatdan himoyalovchi va qo'llab-quvvatlovchi, oziq-ovqat havfsizligini ta'minlovchi, shuningdek, katta va kichik hududlar byudjetini shakllantiruvchi iqtisodiyotning asosiy tarmog'idir. Oziq-ovqat sanoati tarmog'i – go'sht-sut, yog'-moy, baliq mahsulotlari, un-yorma, non, makaron, meva-sabzavot konservalari, qandolat, choy qadoqlash, uzum va shampän vinosi, spirt, aroq, tamaki, pivo, chanqoqbosar ichimliklar, sovun va boshqa mahsulotlar ishlab chiqaradigan ko'plab sanoat korxonalarini o'z ichiga oladi [2]. Uning iqtisodiyotda real sektor sifatida strategik rivojlanishi davlatning eng muhim vazifasi bo'lmog'i lozim [3].

Umuman olganda oziq-ovqat sanoati bir sohadan emas, balki turli xildagi mahsulotlar assortimentini ishlab chiqaruvchi bir qancha sanoat turlari yig'indisidan iboratdir. U qishloq xo'jaligi, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish, ularni qayta ishlash, konservalash, qadoqlash, tarqatish, chakana savdo va iste'molni o'z ichiga qamrab oladi.

Mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan oziq-ovqat mahsulotlari hajmi yildan-yilga oshib bormoqda. Bunga asosiy omil sifatida aholi sonining oshib borishi, mamlakatdagi oziq-ovqat mahsulotlari import-eksportidagi o'zgarishlarni keltirib o'tish mumkin.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Ushbu maqola statik va ekonometrik yondashuvlardan foydalangan holda ma'lum bir mamlakatning oziq-ovqat sanoatiga investitsiyalarning ta'sirini tahlil qilishga qaratilgan. Maqsad, turli xil investitsiya o'zgaruvchilari oziq-ovqat sanoatining o'sishi va ishlashiga qanday ta'sir qilishini tushunishdir. Ushbu metodologiya bo'limi tadqiqot dizayni, ma'lumotlarni to'plash va ushbu maqsadga erishish uchun qo'llaniladigan tahliliy usullarni tavsiflaydi.

Ma'lumotlar turli ishonchli manbalardan to'planadi, jumladan: Hukumat hisobotlari, Milliy statistika idoralari sanoat investitsiyalari, ishlab chiqarish darajasi va iqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha to'liq ma'lumotlarni taqdim etildi. Sanoat hisobotlari shu jumladan sanoat assotsiatsiyalari va bozor tadqiqoti firmalarining hisobotlari investitsiya tendentsiyalari va sektor ko'rsatkichlari haqida tushuncha beradi. Ma'lumotlar uzoq muddatli tendentsiyalar va ta'sirlarni qo'lga kiritish uchun 13 yil (2010-2023 yillar) uchun to'planadi.

Muhokama. O'zbekiston Respublikasida 2022-yilning yanvar-fevral oylari davomida jami faoliyat yuritayotgan 21074 ta Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati korxonalari tomonidan 6736,7 mlrd. so'm qiymatga teng bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarildi. Tarmoqning 2021-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 106,4 % ni tashkil

etdi. Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati korxonalari tomonidan respublika miqyosida ishlab chiqarilgan mahsulotlarning jami hajmida eng yuqori ulush Toshkent viloyati 17,8 % (2180 ta oziq-ovqat sanoati korxonalari tomonidan), Toshkent shahar 14,5% (2909 ta) hamda Samarqand viloyati 14,2 % (2212 ta) hissasiga to'g'ri keldi [4].

2024-yilning yanvar-mart oylarida qayta ishlash sanoatida jami 34,6 trln so'm yoki respublika bo'yicha jami investisiyalar hajmining 32,3 % i o'zlashtirildi.

Shuningdek, uning tarkibidan 2,8 % i yoki 3 trln so'mi oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish sohasiga tegishlidir [5].


Ishlab chiqarilayotgan mahsulotning sifatini oshirish va assortimentini kengaytirishning sharti ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, oziq-ovqat va qayta ishlash sanoati korxonalari bilan bog'liq doimiy investision va innovatsion faoliyat jarayonidir. Iste'mol tovarlarining sifati aholi salomatligini saqlashning asosiy shartlaridan biri bo'lib xizmat qiladi.

Yuqorida qayd etilgan ishlarni jadallashtirish va ularni samarali amalga oshirish maqsadida respublikada 2019-yil 22-martda «Agrosanoat majmui va oziq-ovqat ta'minoti sohasidagi loyihalarini amalga oshirish agentligi» [6] faoliyatini boshladi.

Mazkur Agentlikning asosiy vazifasi va funksiyalaridan biri bu – tadbirkorlikni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlashning ustuvor yo'nalishlarini inobatga olgan holda, agrosanoat majmui va oziq-ovqat ta'minoti sohasidagi loyihalarni, shu jumladan investisiya loyihalarini amalga oshirish maqsadida chet el investisiyalarini, xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlari qarzlari, grantlari va texnik ko'maklashish mablag'larini jalb qilish hisoblanadi [7].

Xalqaro standartlarga javob beradigan raqobatdosh mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun zamonaviy texnologik jixozlar, ilg'or texnologiyalarni joriy etish va yangi texnologiyalarni ishlab chiqishni talab etadi, bu esa o'z navbatida jiddiy moliyaviy va ma'muriy xarajatlarni talab qiladi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, respublikada oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish bilan faoliyat ko'rsatuvchi korxonalar soni va ularda mahsulot ishlab chiqarish hajmi yildan yilga ortib bormoqda.



1-rasm. Uy xo'jaliklari iste'mol xarajatlari tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ulushi [8]

Jadval ma'lumotlaridan shunday xulosaga kelish mumkinki, mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy siyosatlar tufayli oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish bilan faoliyat yurituvchi korxonalar soni 2009 yilda 5066 tadan 2018 yil 12503 taga yetganligi guvohi bo'lamiz. Oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish bilan faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni esa 10 yil mobaynida 365 tadan 398 taga yetgunga qadar o'sishi xarakteriga ham ega bo'lgan.

Oziq-ovqat sanoati korxonalarining aksariyat qismi joylashgan iqtisodiy vaziyat ularni ishlab chiqarishni qayta jihozlash va eskirib qolgan uskunalarni zamonaviy modellarga almashtirish dasturlarini to'liq amalga oshirishga imkon bermaydi. Ko'p hollarda nuqtaviy investisiyalar, ya'ni mavjud ishlab chiqarish liniyalarini takomillashtirishga yo'naltirilgan investisiyalar to'g'risida so'z yuritilgan.

O'zbekiston Respublikasining iqtisodiyoti barqarorligini ta'minlash va rivojlantirishda, sanoatni xom ashyo, aholini esa oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashda qishloq xo'jaligining o'rni beqiyosdir. Qishloq xo'jaligining ikki muhim tarmog'i – dehqonchilik va chorvachilikda inson hayoti uchun birlamchi zarurat bo'lgan oziq-ovqat va sanoat uchun xom ashyo mahsulotlarini yetishtiradi. Oziq-ovqat sanoati dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarini dastlabki yoki to'liq qayta ishlashning turli jarayonlarini ham o'z ichiga oladi va xalqning moddiy farovonligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Shu sababli O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning birinchi bosqichida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlashga katta e'tibor berildi.

Ma'lumki, inson hayotining rivojlanishi, uning salomatligi, unumli mehnat qilish qobiliyati avvalo iste'mol qilinayotgan oziq-ovqat mahsulotlariga, uning ekologik tozaligiga, to'yimlilikiga va turli xil minerallarga boy ekanligiga chambarchas bog'liqdir. Ushbu bog'liqlik mamlakatda doimiy ravishda oziq-ovqat mahsulotlari ta'minoti masalasining birlamchi ahamiyatini nazarda tutgan holda xalqning kundan-kunga oshib borayotgan ehtiyojlarini muntazam kuzatib borib, shular asosida tegishli chora-tadbirlar ko'rishni taqozo etadi.

So'nggi yillarda mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotining tarkibida sanoat mahsulotlarining ulushi ortib bormoqda, birgina 2009 yilda 23,6 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2018 yilga kelib bu ko'rsatkich 26,3 foizni tashkil etdi. Jumladan, oziq-ovqat sanoati ham jadal sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Oziq-ovqat sanoatining umumiy sanoatdagi ulushi 2009 yilda 11 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2018 yilda bu ko'rsatkich 13 foizga teng bo'ldi.

Bu o'sish ko'rsatkichlari mamlakatimizda olib borilayotgan samarali iqtisodiy islohotlarning natijasidir. Bu yutuqlarga erishishda tarmoqqa jalb etilgan investisiyalarning o'rni yuqoridir. Xususan, tarmoqqa jalb etilgan investisiyalar 2017 yilda ishlab chiqarish sanoatiga investisiyalar hajmi 8746,8 mlrd. so'mni va jami investisiyalardagi ulushi 14,4 foizni tashkil etdi. Ishlab chiqarish sanoati tarkibida eng ko'p investisiya o'zlashtirilgan 3 faoliyat turi quyidagilar: metallurgiya sanoati, oziq-ovqat sanoati va tekstil sanoati bo'lib, shulardan oziq-ovqat, ichimlik, tamaki mahsulotlari ishlab chiqarishiga ajratilgan investisiyalar 1265,4 mlrd. so'm (jami asosiy kapitalga investisiyalardagi ulushi 2,2 foiz) ni tashkil etdi. Biroq, jalb etilgan kapitalning samaradorlik ko'rsatkichlari, mavjud resurslardan samarali foydalanilishni baholash va ularga ta'sir etuvchi omillarni tahlil etish muhim ahamiyatga ega.

Mazkur paragrafda ko'rsatkichlarni tahlil qilishda Kobb-Duglasning ishlab chiqarish funksiyasidan foydalanish maqsadli deb topildi.

Alohida hudud yoki butun mamlakatni modellashtirish uchun (ya'ni makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy darajadagi masalalarni yechish uchun)

$$y = a_0 x_1^{a_1} x_2^{a_2} \quad (1.1)$$

ko'rinishdagi ishlab chiqarish funksiyasi keng foydalaniladi, bu yerda a_0, a_1, a_2 – ishlab chiqarish funksiyasi parametrlari. Bular musbat o'zgarmas sonlardir (ko'pincha a_1 va a_2 lar $a_1 + a_2 = 1$ shartni qanoatlantiradi). Yuqorida keltirilgan ko'rinishdagi ishlab chiqarish funksiya 1929-yilda uni ishlatishni taklif etgan ikkita amerikalik iqtisodchilar nomlari bo'yicha Kobb va Duglasning ishlab chiqarish funksiyasi [8] deb ataladi.

Pol Xovard Duglas va Charlz Uiggins Kobb statistik ma'lumotlar asosida qayta ishlash sanoatidagi ishlab chiqarilgan mahsulot va unga ta'sir etuvchi kapital va mehnat xarajatlarining bog'lanishini aks ettiruvchi matematik modelni qurishdi. Kobb-Duglasning ishlab chiqarish funksiyasi o'zining sodda tuzilishi tufayli turli-tuman nazariy va amaliy masalalarni yechish uchun faol ishlatiladi. Kobb-Duglasning ishlab chiqarish funksiyasining tatbiqlarida $x_1 = K$ ishlatilayotgan asosiy kapital hajmiga, $x_2 = L$ esa mehnat xarajatlariga teng bo'lganda Kobb-Duglasning ishlab chiqarish funksiyasi adabiyotlarda ko'pincha ishlatiladigan

$$Y = a_0 K^{a_1} L^{a_2}$$
 ko'rinishini oladi. Bu yerda $a_0 > 0$, $a_1, a_2 \geq 0$, $a_1 + a_2 = 1$.

Mamlakat hududida ishlab chiqariladigan oziq-ovqat mahsulotlari hajmiga ichki va tashqi investisiyalarning ta'sirini empirik tahlil qilish uchun quyidagi o'zgaruvchilardan foydalanildi: oziq-ovqat sanoati tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi, ichki investisiyalar hajmi va tashqi investisiyalar hajmi. Ekonometrik model adekvatligini oshirish uchun, o'zgaruvchilar logarifmlangan shaklda olindi hamda tasviriy statistika ko'rsatkichlari ham logarifmlangan miqdorlar uchun keltirildi.

1.1-jadval.

Regressiya tenglamasi natijalari

Variables	Mean	Standard deviation	Min	Max	Standard error
$\ln Y$	9,495735	0,545854157	8,616405	10,07924	0,181951386
$\ln I$	6,396186	0,724589611	5,417433	7,857287	0,24152987
$\ln X_{llag1}$	3,875195	0,644048077	2,332144	4,465908	0,214682692

Barcha o'zgaruvchilar logarifmlab olingani uchun, regressiya tenglamasi Kobb-Duglas ishlab chiqarish funksiyasiga mos keladi. Shuningdek, tashqi investisiyalarni bir yil oldingi holati bo'yicha hisob kitobni amalga oshirdik.

1.2-jadval.

Oziq-ovqat mahsulotlari hajmiga ichki va tashqi investisiyalar ta'siri natijalari

	Koeffisient-lar	Standart xatolik	t-statistika	p-Qiyamat	Quyi 95foiz	Yuqori 95foiz
Y-kesishuv	2,669600692	1,087973146	2,45373767	0,049538726	0,007426308	5,331775076
$\ln I$	0,835946901	0,114665572	7,290304211	0,000339412	0,555370355	1,116523448

lnFllag 1	0,3817258 42	0,1290050 93	2,9589982 3	0,0253157 94	0,0660617 51	0,6973899 33
--------------	-----------------	-----------------	----------------	-----------------	-----------------	-----------------

Jadval ma'lumotlariga ko'ra, olingan omillar statistik jihatdan ahamiyatli hisoblanadi. Chunki, ikki omilning ham t statistiklari p-qiymati 0.05 dan kichik. Determinatsiya koeffitsienti 0.90 ga teng, demak olingan omillar oziq-ovqat mahsulotlaridagi o'zgarishni 90 foiz tushuntirib beradi. F statistikaning p-qiymati 0.001 dan kichik. Bu tenglama umuman olganda statistik jihatdan ahamiyatli ekanini bildiradi. Bundan tashqari, boshqa o'zgaruvchilar o'zgarmagan sharoitda, kiritilgan ichki investisiyalar 1 foiz ga oshsa, mamlakat hududida ishlab chiqariladigan oziq-ovqat mahsulotlari hajmi 0,84 foizga oshishiga olib keladi, boshqa o'zgaruvchilar o'zgarmagan sharoitda, kiritilgan o'tgan yilgi tashqi investisiyalar 1 foiz ga oshsa, mamlakat hududida ishlab chiqariladigan oziq-ovqat mahsulotlari hajmi 0,38 foizga oshishiga olib keladi. Demak qisqacha xulosa shundan iboratki, ichki investisiya mamlakat hududida ishlab chiqariladigan oziq-ovqat mahsulotlari hajmini oshirishda samarali hisoblanar ekan.

Yuqoridagi modeldan kelib chiqib prognoz ko'rsatkichlarini keltirib o'tish maqsadli deb topildi. Oziq-ovqat ishlab chiqarish sohasi bevosita qishloq xo'jaligi bilan chambarchas bog'liq bo'lganligi sababli sohada risklarni oldini olish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli prognozashtirishni ssenariyli ko'rinishda ishlab chiqish lozim deb topildi.

XX asrning 70-yillaridan boshlab sanoat, bozor segmentlari, iqtisodiyot, mamlakatlar, mintaqalar, alohida firmalar va ijtimoiy sohalarda faol qo'llaniladigan, uzoq muddatli rejalashtirishning asosiy usullaridan biri bu ssenariyli rejalashtirishdir.

Ma'lumki, ssenariylar [9] – bu bir-biriga ta'sir qiluvchi tendensiyalar va hodisalar bilan bir qatorda juda muhim ahamiyatga ega bo'lgan murakkab muhitni tahlil qilishning bir usuli hisoblanadi.

Ssenariylarni ishlab chiqish strategik rejalar va prognozlarni qurishda, ayniqsa, iqtisodiy beqarorlik davrida samarasizligi va noto'g'riligini ko'rsatadigan chiziqli rejalashtirishga muqobil sifatida ishlatiladi. Bundan tashqari, ushbu usul voqealar rivojlanishining eng katta ehtimoligini va qabul qilingan qarorlarning mumkin bo'lgan oqibatlarini baholash imkonini beradi.

Bashorat qilinayotgan vaziyat uchun o'rganilayotgan ob'yektni rivojlantirish uchun muayyan miqdordagi imkoniyatlarning mavjudligi taxmin qilinadi. Shuning uchun, prognoz odatda bir nechta ssenariylardan iborat bo'ladi ("ssenariy yo'nalishlari"). Aksariyat hollarda bu uchta ssenariy

1. optimistik,
2. pessimistik,
3. o'rtacha realistik (eng ehtimolga yaqini).

Hozirgi tadqiqotda optimistik va pessimistik rivojlanish variantlarini ishlab chiqish metodologiyasini tuzishda oziq-ovqat korxonasida o'sish sur'atlarini rivojlantirishning eng yaxshi yoki eng yomon tendensiyalarini kutilgan takrorlanishi haqidagi qoidalar asos qilib olindi.

1.3-jadval

Oziq-ovqat sanoati tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmining model asosidagi prognozi¹.

Yillar	Asosiy ssenariy	Pessimistik ssenariy	Optimistik ssenariy
2020	24590,93	17823,42	33928,06
2021	24927,54	14662,76	42378,25
2022	25268,75	11661,18	54755,17
2023	25614,64	9007,227	72842,59
2024	25965,26	6777,465	99475,93
2025	26320,68	4978,768	139146,5
2026	26680,96	3576,789	199025,9
2027	27046,18	2516,395	290691,9
2028	27416,4	1735,704	433057
2029	27791,68	1174,914	657390,4
2030	28172,1	781,1524	1016021

Keltirilib chiqarilgan modeldan foydalanib 3 xil ssenariyda prognozlarni amalga oshiramiz. Ushbu prognozning asosiy ssenariysiga ko'ra, 2030-yilga kelib, oziq-ovqat sanoati tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2019-yil baholarida 28172.1 mlrd. so'mni tashkil qilishi kutilmoqda. Optimistik ssenariyga ko'ra esa, 2030-yilga kelib, 1016021 mlrd. so'mni tashkil qilishi kutilmoqda. Pessimistik ssenariy bo'yicha esa, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi kamayishi nazarda tutilgani uchun 781.1 mlrd. so'mni tashkil etishi kutilmoqda.

Natija. Tahlillardan kelib chiqib, sohada bir qator muammolar mavjud ekanligini ko'rish mumkin, ularni quyidagicha izohlash mumkin:

- investisiya infratuzilmasining yetarlicha rivojlanmaganligi – banklar, investisiya fondlari, sug'urta va lizing kompaniyalari faoliyatini rag'batlantirish va investisiya loyihalarini amalga oshirishda ularning ishtirokini samarali yo'lga qo'yish;

- tadbirkorlarning biznes ko'nikmalari, shu jumladan, investisiya loyihalari bilan ishlash tajribasi va huquqiy bilimlarning yetarli emasligi – hududlarda mazkur sohaga oid konsalting, marketing va yuridik xizmat ko'rsatuvchi markazlar tashkil etish va faoliyatini rivojlantirish;

- investisiya takliflari va loyiha texnik-iqtisodiy asoslarning belgilangan talablarga javob bermasligi – tadbirkorlarga investisiya loyihalarini ishlab chiqishda tijorat banklari, hududlardagi savdo-sanoat palatasi va boshqa mas'ul idoralar tomonidan amaliy yordam ko'rsatilishini mahalliy xokimliklar tomonidan tashkil etish va doimiy nazoratga olish;

- mahalliy xokimliklarning horijiy investorlarning hudud to'g'risida investision muhitga oid to'liq ma'lumotlar bilan ta'minlashda faol ishtirok etmayotganligi – xorijiy investorlarni to'laqonli ravishda axbarot (investisiya loyihalari va biznes takliflar bazasi, hududiy matbuot nashrlari, iqtisodiy tahlil, xom ashyo va mehnat salohiyati to'g'risida ma'lumotlar) bilan ta'minlash uchun har bir viloyat bo'yicha «Investision salohiyat» veb-portalini tashkil etish, investisiya faoliyatiga oid konferensiyalar, seminar va taqdimotlarni uzluksiz ravishda olib borilishini ta'minlash.

¹ Muallif tomonidan tayyorlandi

Endilikda oziq-ovqat sanoati mahsulotlari ishlab chiqarishni jadal rivojlantirish, qayta ishlash korxonalarini qurish, mavjudlarini rekonstruksiya va modernizatsiya qilish bo'yicha investision loyihalarni amalga oshirish samaradorligini oshirish uchun:

- investisiya loyihalarini moliyalashtirishni yanada takomillashtirish, zamonaviy texnologik uskunalarni lizing asosida xarid qilish orqali tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash;
- loyihalarning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va energiya resurslari bilan ta'minlashni yaxshilash;
- iqtisodiy oliygohlarda investisiyalarni loyihalash bo'yicha iqtisodchi mutaxassis kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini takomillashtirish va uning sifatini oshirish;
- investisiya loyihalarining tashabbuskorlarini axborot-kommunikatsion texnologiyalaridan samarali foydalanishini tashkil etish, loyihalar bajarilishini monitoringini tashkil etish zarur.

Xulosa. Hududlarda oziq-ovqat va qayta ishlash sanoatining rivojlanishiga to'siq bo'luvchi asosiy omillar guruhlab chiqildi:

- zaif (kuchsiz) moddiy-texnika bazasi, sust rivojlangan infratuzilma – xom ashyoni tashish, saqlash va qayta ishlashdagi ishlab chiqarish xarajatlarining ortishi mahsulot tannarxining oshishiga sabab bo'ladi;
- texnologiya darajasining pastligi, mahsulot ishlab chiqarishdagi yuqori xarajatlar
- agrosanoat ishlab chiqarishining barcha bo'g'inlarida mahsulotning daromadililigi va raqobatbardoshligining susayishiga olib keladi;
- korxonani rivojlantirish uchun xususiy moliyaviy mablag'larning yetishmasligi – bu yerdagi asosiy muammo bank kreditlarini olishdagi muammolar: yuqori foiz stavkalari, kredit resurslari uchun korxonada mulkiy garovning mavjud emasligi. Bu kabi muammolarni hal etishning samarali usullaridan biri bu oziq-ovqat sanoatga investisiyalar, subsidiyalar va boshqa maqsadli moliyalashtirish manbalarini jalb etish va ularning samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar yig'indisidir.

Oziq-ovqat yetishtirish jarayonlarida kuzatuv va shaffoflikning yetishmasligi bois soha faoliyati kundan kunga murakkablashib bormoqda. Bunday sharoitda aynan blokcheyn texnologiyasida kuzatuv va shaffoflikni ta'minlab berish imkoniyati mavjud. Iste'molchilarda oziq-ovqat mahsulotlarining kelib chiqishi, uning sifatiga bo'lgan qiziqishning ortib borishi sohadagi shaffoflikni zaruriy shartga aylantirib boradi. Shunday qilib, aksariyat hollarda blokcheyn texnologiyasi oziq-ovqat sanoatida aynan kuzatish maqsadida foydalaniladi.

Oziq-ovqat ta'minoti zanjirining daladan tortib, to iste'molchiga qadar yetkazishda qatnashuvchi barcha ishtirokchilar va ularning faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlar to'liq blokcheynda hamma uchun ochiq tarzda joylashtirilgan bo'ladi. Bu o'z navbatida, ishlab chiqaruvchi va qayta ishlab chiqaruvchilarga o'z mahsulotlariga nisbatan mas'uliyatli bo'lishlariga, yetkazib beruvchilarga mahsulotni uzoq muddat saqlamasdan o'z vaqtida yetkazib berishlariga, iste'molchilar uchun esa kafolatlangan sifatli mahsulotlarga imkon beradi. Kuzatuv va shaffoflikning mavjudligi tovar qaysi ishtirokchi qo'lida sifatini yo'qotganligi to'g'risidagi axborotni olish mumkin bo'ladi, bu bilan iste'molchilar sog'ligiga zarar yetishi hamda ishlab chiqaruvchilarning xarajatlari ortib ketishi oldi olinadi.

Shuningdek, yuqoridagilarga tayangan holda mazkur soha rivojlanishini ta'minlash uchun quyidagi maummolarni alohida e'tibor qaratib, ularning yechimini amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

- investisiya infratuzilmasining yetarlicha rivojlanmaganligi – banklar, investisiya fondlari, sug'urta va lizing kompaniyalari faoliyatini rag'batlantirish va investisiya loyihalarini amalga oshirishda ularning ishtirokini samarali yo'lga qo'yish;

- tadbirkorlarning biznes ko'nikmalari, shu jumladan, investisiya loyihalari bilan ishlash tajribasi va huquqiy bilimlarning yetarli emasligi – hududlarda mazkur sohaga oid konsalting, marketing va yuridik xizmat ko'rsatuvchi markazlar tashkil etish va faoliyatini rivojlantirish;

- investisiya takliflari va loyiha texnik-iqtisodiy asoslarning belgilangan talablarga javob bermasligi – tadbirkorlarga investisiya loyihalarini ishlab chiqishda tijorat banklari, hududlardagi savdo-sanoat palatasi va boshqa mas'ul idoralar tomonidan amaliy yordam ko'rsatilishini mahalliy hokimliklar tomonidan tashkil etish va doimiy nazoratga olish;

mahalliy xokimliklarning xorijiy investorlarning hudud to'g'risida investision muhitga oid to'liq ma'lumotlar bilan ta'minlashda faol ishtirok etmayotganligi – xorijiy investorlarni to'laqonli ravishda axborot (investisiya loyihalari va biznes takliflar bazasi, hududiy matbuot nashrlari, iqtisodiy tahlil, xom ashyo va mehnat salohiyati to'g'risida ma'lumotlar) bilan ta'minlash uchun har bir viloyat bo'yicha «Investision salohiyat» veb-portalini tashkil etish, investisiya faoliyatiga oid konferensiyalar, seminar va taqdimotlarni uzluksiz ravishda olib borilishini ta'minlash.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Thea King, Megan J. Osmond-McLeod, Lesley L. Duffy. Nanotechnology in the food sector and potential applications for the poultry industry. Trends in Food Science & Technology. Volume 72, February 2018, Pages 62-73 <https://doi.org/10.1016/j.tifs.2017.11.015>
2. Saul Blumenthal. FOOD PRODUCTS Food Technologist and Consultant, Shirley Laboratories Fallow, American Institute of Chemists 1947 Brooklyn N.Y.
3. FOOD PROCESSING TECHNOLOGY Principles and Practice Second Edition P. Fellows Published in North and South America by CRC Press LLC 2000 Corporate Blvd, NW Boca Raton FL 33431 USA
4. <https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/19816-oziq-ovqat-mahsulotlari-ishlab-chiqarish-sanoati-2>
5. <https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/54050-o-zbekiston-respublikasida-iqtisodiy-faoliyat-turlari-bo-yicha-asosiy-kapitalga-investitsiyalar>
6. <http://akis.agro.uz/uz/organization/view/12>
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 22-martdagi 241-son "Agrosanoat majmui va oziq-ovqat ta'minoti sohasidagi loyihalarni amalga oshirish agentligi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" qarori.
8. Cobb Charles W. (Amherst College), Douglas Paul H. (University of Chicago). A Theory of production. 1929. <https://web.archive.org/web/20160302124845/https://www.aeaweb.org/aer/top20/18.1.139-165.pdf>
9. <https://www.ecb.europa.eu/pub/pdf/scpwps/ecbwp1733.pdf>

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ 9 (4) – 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари**” электрон
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-
сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-
уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).